SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MUMTOZ ADABIYOT AN'ANALARINING IFODALANISHI

G.I.Doshanova
QQDU

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli shoir Sirojiddin Sayyid ijodiga mumtoz sharq poetikasi an'analarining va salaflar ijodining ta'siri, ulardan o'rganish holatlari tadqiq qilinadi. Sirojiddin Sayyidning «Xayyomdan bir kosa, Rumiydan bir jom», "Xamsa hayratlari" to'plamlariga kirgan she'rlar misolida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: janr, mumtoz she'riyat, fard, g'azal, ikkilik, to'rtlik, vazn, qofiya, ohang

THE EXPRESSION OF CLASSICAL LITERATURE TRADITIONS IN THE WORK OF SIROJIDDIN SAYID

G.I.Doshanova
KSU

Abstract: Thexamines the influence of the traditions of classical oriental poetics and the work of the famous poet Sirojiddin Sayyid on the work of the famous poet Sirojiddin Sayyid, and the cases of learning from them. It is analyzed using the example of poems included in the collections of Sirojiddin Sayyid "A Cup from Khayyam, a Cup from Rumi" and "The Wonders of Hamsa".

Keywords: genre, classical poetry, fard, ghazal, couplet, quatrain, meter, rhyme, melody

Sirojiddin Sayyid o'zining «Xayyomdan bir kosa, Rumiydan bir jom» deb nomlangan to'plamida mumtoz shoirlarga xos janrda yozgan ikkiliklarini «Umr va ayyom fardlari» deb nomlaydi. Shoirning bu ruknda jamlangan she'rlari uchun umumiy sarlavhada «fard» atamasining uchrashi bejiz emas, albatta. Ayni holat salaflardan o'rganish, ergashish va ularga ehtirom 'nosini namoyon qiladi. Zotan u mumtoz allomalarga ehtirom bayonlarini ikkiliklarida, shoirning o'z ta'biri bilan aytganda «umr va ayyom farddari»da mumtoz an'analarga monand shoirona lutf bilan bayon qiladi.

Ko'cha-ko'ylar, bu ravon yo'llar muhabbat paytidek,
Har biri hazrat Navoiy she'rining bir baytidek.

(cc) BY

Shoir ko‘chalarni, yo‘llarni tasvirlar ekan, beixtiyor hazrat Navoiyning she’riyatiga, uning g‘azallari va bir baytdan iborat fardlariga xayoli ketadi va turmushdagi hodisani, reallikni Navoiy baytiga o‘xshatadi. O‘quvchi nazdida tekis yo‘llarni ko‘rib, xayolan Navoiynig baytlarini o‘qiyotgandek bo‘ladi. Ajdodlarni shoir hamisha o‘z she’rlarida ehtirom bilan tilga oladi. Ularning fazli, sha’ni bilan faxrlanadi. Bu faxr tuyg‘usini S.Sayyid:

Ma’rifat osmonida mangu yonar qandillarim -

Naqshbandiylar, Buxoriylar, Samarqandiylarim,

Zulmatni charog‘on qiladigan bu yoritgichni shoir ma’rifat va ma’naviyat bilan bog‘laydi. Ma’naviyat, ma’rifat, ilm-fan qandillarini beixtiyor yodga olgan shoir bu Vatan tuprog‘ida yashab o‘tgan Naqshbandiylar, Buxoriy va Samarqandiylarga hodisani juda mohirona, shoirona yo‘sinda bog‘lab, hikmatli ikkilikni yuzaga keltiradi. «Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur» deya na’ra tortib, ulkan shoir tavsifini dostondek ulkan janrda bayon qilgan Sirojiddin Sayyid mitti janr, ikkiliklarida ham Boburga o‘xshab, gohida umr mazmuni, uning o‘tkinchiligidan, ba’zan yaxshilik va yomonlikdan, yaxshi va yomondan so‘z ochadi:

Aytmangizkim, necha bir yaxshi-yomonlar o‘tdilar,

Asli gulduros solib davru zamonlar o‘tdilar.

Bu ikkilikdagi yaxshi bilan yomonning o‘tgani barobarida shoir davr va zamon ham xuddi suvdek tez oqib o‘tayotganiga ishora qiladi. 7+8 tarzida turoqlangan bu misra umumiy o‘n besh bo‘g‘indan iborat. Bir jihatdan mumtoz adabiy shakllarni ham yodga soladi. Qofiyalanishiga diqqat qilsak, shoir «yomon» bilan «zamon» so‘zlarini ishlatib, tugal qofiyani yuzaga keltiradi.

Yillar bo‘yi boshimga ne zeru zabarlar kelmadi,

Sendin xabarlar kelmadi, sendin xabarlar kelmadi.

Shoir boshidan kechirgan turfa hodisalar, hayot yo‘lida uchragan mehnat-mashaqqatlar - bular qaysidir ma’noda Bobur hayot yo‘lini eslatadi. Shuningdek, «sendin xabarlar kelmadi» birikmasining takrori fardga o‘ziga xos ohang va joziba bag‘ishlaydi, shu bilan birga, fikr oqimini sog‘inch, mehr-muhabbat tomonga yo‘naltiradi.

Adabiyotshunos Nurboy Jabborov shoirning Navoiyga ixlosi va izdoshligi sabablarini ta’kidlab: “Sirojiddin Sayyid Navoiyni ko‘p o‘qiydi, “Xazoyin ul-ma’oniyni xatm qilgan kunni eng katta bayram deb biladi. Muhimi, she’rlarida ulug‘ Navoiydan mumtoz she’riyatimizdan bahramandlik ta’siri sezilib turadi”, - deb yozganida haq edilar.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatidagi ikkiliklar tabiatan ixchamligi, hikmatlar asosida yuzaga kelishi va badiiy san’atlar qo‘llangani bilan mumtoz fardlarga janriy jihatdan yaqin turadi. Aslida ixcham bayon, nafaqat shoirlar, balki so‘z zargari

(cc) BY

bo‘lgan Abdulla Qahhordek adiblarning ham e’tiborini o‘ziga tortgan edi. Yozuvchi bu xususda, jumladan, shunday yozadi: «Ikki satr she’rda berilgan fikrni ming xil qilib aytsa bo‘ladi, lekin bu ming variantning hech qaysisi shu ikki satrday (agar u haqiqiy she’r bo‘lsa) ham sodda, ham qisqa, ham kuchli, ham ta’sirli bo‘lmaydi. Bundagi vazn bilan qofiya ham « to‘g‘ri so‘z»ni she’r qilish uchun emas, shu fikrni ifoda qilish uchun zarur bo‘lib qoladi». Darhaqiqat, S.Sayid ikkiliklarida ham vazn va qofiya « fikr ifodasi uchun zarur» bo‘lgani seziladi. Ma’lumki, o‘zbek adabiyoti tarixida mumtoz shoirlar umrning o‘tayotganligini tabiatdagi fasllarga o‘xshatishadi. S.Sayyid ham o‘z she’rlarida bu metaforik usulni mahorat bilan qo‘llaydi.

O‘tdi ellik chog‘ umrdin, kuzga etdi endi ish,

Bog‘lar ortidan og‘ir-og‘ir yaqinlashmoqda qish.

Inson ellik yoshida o‘zini, o‘zligini chuqur anglaydi, tabiiyki, o‘z umrining kuzi kelganini teran his qiladi. Ayni damda S.Sayyid aytmoqchi: kuz izidan, sarg‘aygan yaproqlar izidan «og‘ir-og‘ir», sekin-asta qish yaqinlashadi. Bu Yaratganning irodasi. Foniy dunyoga kelgan har bir bashariyat ahli boqiy dunyo sari yo‘l oladi. Ammo kelish va ketishning xuddi tabiatda fasllar ketma-ketligi kabi o‘z mezonlari, yo‘l-yo‘riqlari va tartiblari bor. Shoir buni chuqur his qilar ekan, boshqa bir ikkiligida yozadi:

Odamzotga bahor faslida buldir hasbi hol:

Ul ham o‘tgay bu hayotdin abri naysonlar misol.

Bunda shoir inson umrini bahor fasli ichiga joylaydi. Bahor faslining buluti, yomg‘iri bo‘ladi. Insonning bahordagi hayotini misoli «abri nayson» - bahorda kelib-ketguvchi bulutga o‘xshatadi. Sirojiddin Sayyid ikkiliklarida she’riy so‘z asta-sekin hikmatga, aforizmga yaqinlashadi.

Qanchalar yuksak va ozod bo‘lsalar yulduzlarim,

Shunchalar teran taralmish er aro ildizlarim.

Bu milliy qadriyatlar, ajdod-avlodlar shonu shuhratiga doir shoirona aytilgan teran hikmat, albatta. Sirojiddin Sayyid zamonaviy o‘zbek she’riyatining iste’dodli namoyondalaridan biri sifatida ijtimoiy turmushni teran anglagani va bu tuyg‘ularini nafaqat bandli she’rlarida, balki ikkiliklarida ham mahorat bilan badiiy yo‘sinda mohirona bayon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayyid Sirojiddin. Vaqt haykali. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi,2023

2. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O‘qituvchi, 1976.

3. Normatov U. Adabiyot nazariyasi masalalari. Toshkent: Fan, 1981.

4. Rahimov, A. (2005). Sirojiddin Sayyid: Adabiy meros va tarixi. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

(cc) BY